

## RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING MEDIASAVODXONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

*Nazarmatova Dilshoda Umarali qizi  
Toshkent amaliy fanlar universiteti o‘qituvchisi*

*Annotatsiya: Hozirgi axborotlashgan davr hisoblanar ekan, biz kompyuter va boshqa elektron resurslardan voz kecholmaymiz va ularsiz ishimizni davom ettira olmaymiz. Shunday ekan, axborot resurslardan foydalanish kompetenetligini oshirish va uni samarali ishlatalish undan voz kechishdan osonroq. Shu oraliqda ta’kidlab o‘tishimiz lozimki bugungi axborot asrida kompetensiya va kompetentlik tushunchalari orasida mediakompetentlikv axborot kompetentligi, texnologik kompetentlik kabi tushunchalar ommalashdi. Chunki, bizni o‘rab turgan olamning barcha sohalari raqamlashtirilgan texnologiyalardan iborat. Shu sababli bo‘lajak tarbiyachilarga elektron resurslardan foydalana olish ko‘nikmasini, mediakompetentligini shakllantirish va tarbiyalanuvchilarga to‘g‘ri yetkazib bera olishni o‘rgatish bizning asosiy vazifamizdir. Ushbu maqola ham bo‘lajak tarbiyachilarga elektron resurslardan foydalanishda bilish kerak bo‘lgan omillarni va majburiyatlarni ko‘rsatib o‘tgan*

*Kalit so‘zlar: tarbiyachi, bola, mediasavodxonlik, axborot, innovatsiya, omil, kompetensiya, elektron resurs, ko‘nikma, faoliyat*

## ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ МЕДИАГРАМОТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГИ В ЦИФРОВЫХ УСЛОВИЯХ

*Назарматова Дильшода Умарали қизи  
преподаватель Ташкентского университета прикладных наук.*

**Аннотация:** Учитывая нынешний информационный век, мы не можем отказаться от компьютеров и других электронных ресурсов и продолжать свою работу без них. Поэтому легче повысить компетентность использования информационных ресурсов и эффективно их использовать, чем отказываться от них. Потому что весь мир вокруг нас оцифрован технологиями. Поэтому наша главная задача – сформировать у будущих учителей навыки использования электронных ресурсов и научить их правильно их подавать. В этой статье также показаны факторы и обязанности, которые должны знать будущие педагоги при использовании электронных ресурсов.

**Ключевые слова:** воспитатель, ребенок, информация, инновация, фактор, компетентность, электронные ресурсы, умение, деятельность.

## ISSUES OF IMPROVING THE MEDIA LITERACY OF FUTURE EDUCATORS IN DIGITAL CONDITIONS

*Nazarmatova Dilshoda Umarali kizi  
teacher at Tashkent University of Applied Sciences*

**Abstract:** Given the current informative world, we cannot abandon computers and other electronic resources and continue our work without them. Therefore, it is easier to increase the competence of using information resources and use them effectively than to refuse them. Because the whole world around us is digitized by technology. Therefore, our main task is to develop the skills of using electronic resources in future teachers and teach them how to present them correctly. This article also shows the factors and responsibilities that future educators should be aware of when using electronic resources.

**Key words:** educator, child, information, innovation, factor, competence, electronic resources, skill, activity.

**KIRISH.** Hozirgi kunda mamlakatimiz maktabagacha ta’lim tizimiga katta e’tibor berilayotgan bir vaqtida nafaqat bolalarning rivojlanishiga balki tarbiyachilarning rivojlanishigam ham e’tibor berilmoqda. Shuningdek, ushbu e’tiborni oliy ta’lim muassasalarida o‘qib, ta’lim olayatogan talabalardan boshlanishi quvonarli holat. Ya’ni bo‘lajak tarbiyachilarni ham jismonan ruhan shu bilan birga hozirgi davrga mos holatda ta’lim olishlariga imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Bo‘lajak tarbiyachilarning elektron

resurslaridan foydalanish olish kompetentligini oshirish esa tarbiyalanuvchilarga o'rgatish uchun zamin yarata oladi. Chunki, elektron resurslar, axborot texnologiyalari hozirgi zamonning talabi hisoblanadi. Lekin, undan to'g'ri foydalanishni bilish asosiy o'rinda turadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish va muvaffaqiyatlari davom ettirish uchun zarur bo'lgan ilmiy metodlar, o'quv uslublar, qo'llanmalardan foydalanish doimiy muammo holatida qolmoqda va ularni bartaraf etish va yangicha innovatsion uslublarni qo'llash esa tarbiyachining mahoratiga bo'gliq. Demak, bo'lajak tarbiyachilarga innovatsion yondashuvlarni o'rgatar ekanmiz, talabalarda shaxsiy innovatsion fikrlashi rivojlanishi va elektron resurslar orqali pedagogik jarayoniga yangilik olib kirishini o'rganadi. O'zbekistan Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontsepsiyasida talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli taxlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayoniga kompetentsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirish, bu borada o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish kabi muhim vazifalar belgilab berildi. Konsepsiyaning 3 bobida Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari bo'limida:

- maktabgacha ta'lim sohasidagi me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;
- maktabgacha yoshdagи bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
- maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or-pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish kabi bandida ko'rsatib o'tilgan.

2022-2023-yillarda Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'grisidagi 22.08.2022 yildagi PQ-357 sonli qarorida Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi 2023-yil 1-yanvarga qadar yagona elektron hujjat aylanish tizimi, xabarlar almashish messenjeri, yig'ilish va tadbirlar kalendari, himoyalangan elektron pochta va videokonferensiyalar o'tkazish imkoniyatlarini o'z ichiga olgan davlat organlari va tashkilotlari xodimlarining avtomatlashtirilgan ish joyi — "Digital office" elektron tizimi (keyingi o'rnlarda — "Digital office" tizimi) ishlab chiqilishini va birinchi bosqichda, sinov tariqasida vazirlik tizimida, keyinchalik barcha davlat organlarida joriy etilishini ta'minlash to'g'risida bir qator ishlar vazifalari keltirilgan.

#### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Hozrgi kungacha axborot texnologiyasi va elektron resurslardan foydalanish bo'yicha O'zbekiston olimlari va xorijiy davlatdagi olimlar ko'plab ishlar olib borishmoqda. Lapchik (2013), Yachin (2016), Fernandes va Yachina (2018), kontekstda o'qituvchilarni raqamli tayyorlashning dolzarbligiga e'tibor qaratadi zamonaviy pedagogik ta'limni axborotlashtirish va raqamlashtirish, kelajakning muayyan darajasini shakllantirish zarurati raqamli texnologiyalar sohasidagi o'qituvchining raqamli kompetentsiyasi muhimligini ta'kidlaydilar. Aloqa va tarmoq texnologiyalari, ta'lim texnologiyalari, mobil va interaktiv o'zlashtirishning maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi. Quarles va boshqalar (2018) so'nggi raqamli vositalar va mobil qurilmalardan foydalanish pedagogik faoliyatdagi texnologiyalar o'rganish samaradorligini va talabalarning qiziqishini oshirishi kerak ishonadilar. Makkhissabekova va boshqalar (2017) ta'lim faoliyati formati doimo o'zgarib turadi ta'kidlaydilar. Shu munosabat bilan bo'lajak tarbiyachi zamonaviy raqamli texnologiyalarni bilish zarur. Jons va Bennett (2017) talabalarni o'qitish va tarbiyalashning asosiy uslubiy asoslarini shakllantirishda ta'limni raqamlashtirish salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi haqida ogohlantirmoqda.

Demarle-Meusel va boshqalar (2017) bo'lajak tarbiyachiga zamonaviy raqamli vositalar bilan ishslash ko'nikma va malakalarini egallashga yordam berishda universitetda raqamli ta'lim muhitini yaratish zarurligi haqida gapiradi. (2018), Biroq, Demarle-Meusel va boshqalar. (2017) u yerda kelajakdagi fanning raqamli kompetentsiyasini rivojlantirish bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar deyarli yo'q, o'qituvchilarning kasbiy faoliyatida AR-texnologiyalaridan foydalanishda, bu talabalarning kasbiy qobiliyatlari shakllanishini rag'batlantirishga yordam beradi. Mediasavodxonlikning eng oddiy ta'rif: turli shakldagi ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda kirish, tahlil qilish, baholash, yaratish va harakat qilish qobiliyatidir.

Oddiy qilib aytganda mediasavodxonlik an'anaviy savodxonlik poydevoriga asoslanadi va o'qish hamda yozishning yangi shakllarini Bugungi kunda mediasavodxonlik Buyuk Britaniya va Avstraliyada

gumanitar fanlar majmuasida alohida fan sifatida o‘tiladi. Ko‘rinib turibdiki, olimlarning ham axborot texnologiyaga bo‘lgan fikrlari va qarashlari turlicha. Ammo, hozirgi zamон talabi bo‘lgan axborot texnologiyasi har doim zaruriy ahamiyatda qolmoqda. Chunki, har bir soha raqamlashitirayotgan bir vaqtida kompyuterni, turli xil dasturlarni bilmaslik, bu ishning orqaga tortishi va uning samarali bitmasligini ta’minlaydi.

## NATIJALAR

Tarbiyachilar elektron resurslarni markazlarga qismlagan holatdan ham o‘tishlari mumkin. Masalan: “Ilm fan va tabiat” markazida, “Syujetli-rolli va sahnalashtirish” markazida. Chunki, biz bilamizki, bolalarda vizual holatda eslab qolish imkoniyati katta. Og‘zaki, yoki umumiy guruh shaklida o‘tilgan faoliyatlar bolalarning eslab qolishi va uni hayotga tadbiq etishiga yetarli emas. Bola o‘zi ushlab ko‘rib, uni his qilishi katta natijaga erishishga ko‘mak beradi. Umuman olganda, bo‘lajak tarbiyachilar har bir soha yoki markazlarda bola bilan ishlaganda innovatsion yondashgan holda elektron resurslar, axborot texnologiyalardan foydalanib faoliyatni olib borsa bolada tushunish imkoniyati ortadi. Ammo shuni unutmaslik kerakki, axborot texnologiyalarining foydalanish qonun qoidalarini o‘rgatish tarbiyachining asosiy vazifasi bo‘lishi kerak. Chunki, samarali ishslashning albatta me’yorini bilish zarur. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhitiga asoslangan axborotlashtirilgan jamiyatning tarkibiy qismlari – bu media, til hamda madaniyatdir. Aynan, biz yashayotgan dunyoning tili va madaniyatini insondagi mediakompetentlik tashkil etadi. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhitiga asoslangan axborotlashtirilgan jamiyatning tarkibiy qismlari – bu media, til hamda madaniyatdir. Aynan, biz yashayotgan dunyoning tili va madaniyatini insondagi mediakompetentlik tashkil etadi. Shuning uchun, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining mediakompetentligini rivojlantirish masalasi ilm oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bunda zamonaviy ilmiy-texnikaviy taraqqiyot talablariga mos holda maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarining media borasidagi bilimlarini takomillashtirish orqali mediakompetentlikni rivojlantirish texnologiyasini yaratish pedagogik yo‘nalishdagi tadqiqotlar ichida muhim ahamiyatga ega.

### Mediasavodxonlik quyidagilarni o‘z ichiga oladi:



1-rasm: Mediasavodxonlik ko‘nikmalar

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari ta’lim-tarbiya jarayonida multimedia texnologiyasidan foydalanishni amalga oshirish uchun, avvalo, multimedia to‘g‘risida asosiy tushunchalami o‘rganamiz. Multimedia atamasining lug‘aviy m a’nosи (multum-medium) (yoki (inglizcha multi-media) kabi ikkita so‘z yig‘indisidan tashkil topgan bo‘lib, multi - ko‘p, media - muhit ma’nosini anglatadi. Atama ilmiy va o ‘quv adabiyotlarida ko‘p vositalilik, multimedia muhiti, ko‘p qatlamlı muhit, multimedia - bittadan ko‘p bo‘lgan mediadir, mahsulot tashuvchi vosita, ma’lumot tashuvchi vosita kabi talqin qilinib kelinmoqda, xatto, ayrim adabiyotlarda hozirgacha multimedia atamasining aniq ta’rifi mavjud emasligi ham e’tirof etilgan. Hozirgi kunda multimedia atamasi ko‘p qirrali bo‘lib, turli xil tushunchalami ifodalashga tatbiq etilib kelinmoqda.

MUHOKAMA. Media atamasi lotincha “medium” ya’ni „vosita”, „vositachi”, „usul” turli

ko‘rinishdagi kommunikatsiya va axborot vositalari tushunchasini anglatadi. Yanada aniqrog‘i „ommaviy axborot vositalari” degan ma’noni anglatadi. Mazkur atama zamonaviy qo‘llanishida bir necha ma’noga ega. Birinchidan, „media” so‘zi „OAV”ni; radio, kitob, televideny, gazeta, internetni anglatadi. Ikkinchidan, undan mediakontentni – yangiliklar, reklama, e’lonlarni, elektron o‘yinlar va filmlarni belgilash uchun foydalaniladi. Uchinchidan, u mediakontentni ishlab chiqaruvchilar, jurnalistlar, fotosuratchilarni, mediakompaniyalarni va hakoza larni ham bildirishi mumkin. Mediasavodxonlik haqida turli fikrlar bildirilgan. Mediasavodxonlikning zarurligi, maqsadi va ehtiyojlari kabi media ta’lim asosini tashkil etuvchi masalalar bilan bir qatorda yuradi. Turli xil olimlar tomonidan medisavodxonlikning zamini, rivojlanish jarayoni va hozirgi holatiga oid turli nazariy va amaliy yondashuvlar ilgari surilgan. “Mediasavodxonlik” atamasi ko‘pincha ommaviy axborot vositalari va media texnologiyalar bilan bog‘liq boshqa atamalar bilan o‘zaro almashtiriladi.

To‘g‘ri hozirgi kunda axborot texnologiyadan faqatgina izlash yoki yuklab olish tiziminigina foydalanyapmiz. Ammo, bizning hududda ham tarbiyachilar uchun keng foydalanish mumkin bo‘lgan dastur, turli xil multfilmlar va rasmi ko‘rgazmalar keng qo‘llanishi kerak. Bo‘lajak tarbiyachilarni ayan shunday vazifalarni bajara oluvchi qilib tayyorlash oliy ta’lim muassasasi va pedagog o‘qituvchilarning zimmasiga yuklangan. Tarbiyachi katta bir dastur yoki ommaviy ish qila olmasa ham o‘zining pedagogik faoliyati uchun kichik bir axborotlashgan dastur yoki ko‘rgazmali qurol yasay olishi va yarata olishi zarur.

XULOSA. Jahon miqyosida innovatsion texnologiyalardan erkin foydalana oladigan, mediasavodxonlik ko‘nikmalariga ega bo‘lgan bo‘lajak tarbiyachilarni tayyorlash bu xozirgi kunda dolzarb masalalardan birin hisoblanadi. Media sohasida turli ko‘rinishlarida xorijiy hamda mahalliy tadqiqotchi-olimlarning bir qator izlanishlarini ko‘rishimiz mumkin. Bu albatta uzlusiz ta’lim tizimining boshlang‘ich qismi sifatida muktabgacha ta’lim tizimida olib borilayotgan tubdan o‘zgarishlar va islohotlar natijasidir. Muktabgacha ta’lim sohasida faoliyat yuritayotgan hamda faoliyat olib borishni istagan bo‘lajak tarbiyachilarga zamonaviy tendensiyalar asosida o‘qitish, xorijiy mamalakatlar tajribasidan foydalanib hamkorlikda uzviy ishlarni olib borish xozirgi kunda barcha oliy ta’lim muassasalarining ustvor maqsadlaridan biri hisoblanadi. O‘sib kelayotgan yosh avlodning barkamol bo‘lib, kompetentli bola roliga kirishida tarbiyachi-pedagoglarimizning o‘rnini yuqori. Pedagogning bilimli kompetentli bo‘lishi ta’lim sifatini o’sishiga turtki bo‘ladi.

## REFERENCES

1. Agibova, I. & Fedina, O. (2019). Fundamental education in university in development of future teachers’ professional competences. European Proceedings of Social & Behavioural Sciences, LXXVIII, 249-259.
2. Demarle-Meusel, H., Sabitzer, B., & Sylle, J. (2017, April). The Teaching-Learning-Lab: Digital literacy and computational thinking for everyone. In International Conference on Computer Supported Education (Vol. 2, pp. 166-170). SCITEPRESS.
3. Fernández, O. G. G. & Yachina, N. P. (2018). Development of digital competence of the future teacher in the educational space of higher education institutions. Vestnik VGU - VSU bulletin. Series: Problems of higher education, 1, 134-138.
4. Maxwell, A., Jiang, Z., & Chen, C. (2017). Mobile learning for undergraduate course through interactive apps and a novel mobile remote shake table laboratory. In Proceedings of 124th Annual Conference and Exposition, 24.
5. Quarles, A. M., Conway, C. S., Harris, S. M., Osler II, J. E., & Rech, L. (2018). Integrating digital/mobile learning strategies with students in the classroom at the historical black college/university (HBCU). In Handbook of research on digital content, mobile learning, and technology integration models in teacher education (pp. 390-408). IGI Global.